

“TASDIQLAYMAN”

“WORLD JOURNALS PUBLISHING” MCHJ direktori



Sattarov
Sattarov U.U.
06” 05 2026-yil

“Journal of Global Scientific Innovations” (JGSI)

jurnali tahririyatining

N I Z O M I

1. UMUMIY QOIDALAR

1.1. Mazkur Nizom "Journal of Global Scientific Innovations (JGSI)" ilmiy jurnalining tahririyati (bundan buyon matnda – Tahririyat) faoliyatining tashkiliy-huquqiy asoslarini, maqsad va vazifalarini, huquq va majburiyatlarini hamda boshqaruv tartibini belgilaydi.

1.2. Mazkur Nizom O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 19 dekabrda "Ommaviy axborot va kommunikatsiyalar sohasida davlat xizmatlari ko'rsatishning ayrim ma'muriy reglamentlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga hamda boshqa huquqiy-me'yoriy hujjatlarga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.3. Jurnalning Muassisi: "WORLD JOURNALS PUBLISHING" Mas'uliyati cheklangan jamiyati (bundan buyon matnda – Muassis).

1.4. Jurnal tahririyati O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi Qonunining 15-moddasiga muvofiq tashkil etilgan bo'lib, o'z faoliyatini qonunchilik doirasida mustaqil olib boradi. Tahririyat o'zining muhr va shtampiga ega.

1.5. Jurnal ommaviy axborot vositasi sifatida Internet global axborot tarmog'i orqali (veb-sayt shaklida) tarqatiladi.

1.6. Jurnalning rasmiy veb-sayti: <https://worldjournal.uz/index.php/jgsi>

1.7. Jurnal materiallari o'zbek, ingliz va rus tillarida e'lon qilinadi.

1.8. Jurnalning davriyligi: yiliga 6 marta (har ikki oyda bir marta) nashr etiladi.

1.9. Tahririyat o'z faoliyatida O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi, "Noshirlik faoliyati to'g'risida"gi, "Axborot olish prinsiplari va kafalotlari to'g'risida"gi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari hamda mazkur Nizomga asoslanadi.

2. OAV NING IXTISOSLASHUVI, MAQSADI VA VAZIFALARI

2.1. Jurnalning ixtisoslashuvi: Jurnal matematika, muhandislik, tabiiy fanlar, qishloq xo'jaligi, ekologiya, axborot texnologiyalari, ijtimoiy-gumanitar fanlar va fanlararo kompleks tadqiqotlar bo'yicha ilmiy maqolalarni chop etishga ixtisoslashgan.

2.2. Jurnalning asosiy maqsadi – mamlakatimiz va xalqaro miqyosda olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar natijalarini keng yoritish, olimlar, yosh tadqiqotchilar, doktorantlar va mutaxassislar o'rtasida bilim almashinuvi uchun ochiq ilmiy platforma yaratish, fan va innovatsiyalar rivojiga hissa qo'shish.

2.3. Jurnalning vazifalari:

- Ilmiy maqolalarni qabul qilish, saralash va ikki tomonlama ko'ri-ko'rona taqrizdan (peer review) o'tkazish;
- Zamonaviy ilm-fan yutuqlarini targ'ib qilish va keng jamoatchilikka yetkazish;
- Xalqaro ilmiy ma'lumotlar bazalariga (Scopus, Web of Science, Google Scholar va boshqalar) integratsiyalashuvni ta'minlash;
- Magistrantlar, tayanch doktorantlar, mustaqil izlanuvchilar va professor-o'qituvchilarning ilmiy maqolalarini nashr etish;
- Milliy va xalqaro ilmiy hamkorlikni rivojlantirish, ilmiy muloqot uchun sharoit yaratish;
- Fanlararo tadqiqotlarni rag'batlantirish va zamonaviy metodologik yondashuvlarni targ'ib qilish;
- O'zbekiston Respublikasida fan, texnologiya va innovatsiyalarni rivojlantirishdagi ustuvor yo'nalishlarni qo'llab-quvvatlash.

3. TAHRIRIYAT MANZILI

3.1. Tahririyatning yuridik va pochta manzili: O'zbekiston Respublikasi, Buxoro viloyati, Buxoro shahri, Yangiobod MFY, Nosir Buxoriy ko'chasi, 51-uy.

3.2. Tahririyatning elektron pochta manzili va rasmiy veb-sayti orqali murojaat qilish mumkin.

4. MUASSISNING HUQUQLARI

4.1. Muassis quyidagi huquqlarga ega:

- Qonunchilikda va mazkur Nizomda ko'zda tutilgan tartibda tahririyatni boshqarishda ishtirok etadi, uning ommaviy axborot vositalariga, tegishli qonunlarga rioya qilishini ta'minlaydi;
- Tahririyatning Bosh muharririni ishga qabul qiladi va lavozimidan ozod etadi;
- Tahrir hay'ati tarkibini Bosh muharrir taklifi asosida tasdiqlaydi;
- Tahririyat faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan takliflarni ko'rib chiqadi va tasdiqlaydi;
- Tahririyat ishlab chiqargan mahsulotni arxivlash doirasida oladi;
- O'z nomidan ommaviy axborot vositasida bepul material joylashtirish masalasini hal qiladi;
- Qonun hujjatlariga muvofiq OAV faoliyatini to'xtatib turish yoki tugatish to'g'risida qaror qabul qiladi;
- Tahririyatga faoliyatini amalga oshirishda moddiy va ma'naviy ko'mak beradi.

5. MUASSISNING MAJBURIYATLARI

5.1. Muassis quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:

- Tahririyatni tashkil etish va Nizomini tasdiqlash;
- Tahririyat bilan shartnoma tuzish va uning shartlariga rioya etish;
- Tahririyatning ijodiy mustaqilligini ta'minlash va qonunchilikka rioya etilishini nazorat qilish;
- Tahririyatni moddiy-texnik resurslarga ega bo'lishi uchun zarur sharoitlarni yaratish;
- Ustav fondi o'zgarganda, buning natijasida chet el investitsiyasi ulushi belgilangan chegaradan oshgan taqdirda, ro'yxatga oluvchi organga xabar berish.

5.2. Muassis senzura qilishga, retsenziyalashga yoki tahririyatning ijodiy va moliya-xo'jalik faoliyatiga noqonuniy aralashishga haqli emas.

5.3. Muassis amaldagi qonunchilikka muvofiq boshqa huquq va majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

6. TAHRIRIYATNING HUQUQLARI

6.1. Tahririyat quyidagi huquqlarga ega:

- Axborot izlash va tarqatish;
- Axborot olish uchun davlat organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar va muassasalarga murojaat qilish;
- Davlat siri yoki qonun bilan qo'riqlanadigan axborotlardan boshqa axborotlardan foydalanish;
- Ma'lumotlarni belgilangan tartibda yozib olish, turli texnik vositalardan foydalanish;
- Taqdim etilgan maqolalarni tahrir qilish, mazmuni to'g'ri bo'lmagan hollarda chop etishdan bosh tortish;
- Maqolalarni tekshirish uchun soha olimlari va mutaxassislariga murojaat qilish;
- Qonuniy asoslarga ko'ra mualliflardan olingan materiallarni chop etishni rad etish;
- Muassis bilan shartnoma tuzish;
- Shartnoma asosida pullik xizmatlar ko'rsatish.

7. TAHRIRIYATNING MAJBURIYATLARI

7.1. Tahririyat quyidagi majburiyatlarni bajaradi:

- O'z Nizomi va sohaga oid qonun hujjatlariga rioya qilish;
- Chop etilayotgan materiallarning haqqoniyligi va to'g'riligini tekshirish;

- Maqolalarni ekspertizadan o'tkazish, tahrir qilish, mazmun mundarijasini belgilash;
- Jurnalning belgilangan davriylikda sifatli chiqishini ta'minlash;
- Davlat sirlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirlarni oshkor etmaslik;
- Muassiga tegishli moliyaviy zararni qoplash;
- Chop etish uchun tayyorlangan maqolalarni tahrir hay'ati a'zolariga taqdim etish;
- Tahririyat xodimlariga zarur ish sharoiti va rag'batlantirishni ta'minlash;
- Obunachilar va mualliflar oldida to'la javobgar bo'lish.

7.2. O'zbekiston Respublikasi qonunlariga ko'ra quyidagilar taqiqlanadi va tahririyat ular amalga oshirilishiga yo'l qo'ymaydi:

- Konstitutsiyaviy tuzumni zo'rlik bilan o'zgartirishga da'vat qiluvchi, urush, zo'ravonlik va terrorizmni, diniy ekstremizm, separatizm va aqidaparastlik g'oyalarini targ'ib qiluvchi materiallar;
- Milliy, irqiy, etnik yoki diniy adovat qo'zg'atuvchi axborot tarqatish;
- Fuqarolarning sha'ni, qadr-qimmatini yoki ishchanlik obro'sini tahqirlash;
- Pornografiya, giyohvandlik va psixotrop moddalarni targ'ib qilish;
- Prokuror, tergovchi yoki surishtiruvchining yozma ruxsatisiz surishtiruv materiallarini e'lon qilish.

8. BOSHQARUV ORGANLARINI SHAKLLANTIRISH TARTIBI

8.1. Tahririyat bosh muharrir va tahririyat xodimlari jamoasidan iborat.

8.2. Tahririyatga Muassis tomonidan tayinlanadigan Bosh muharrir rahbarlik qiladi. Bosh muharrir OAVning chiqarilishini ta'minlash va uning mazmuni uchun javobgar shaxs hisoblanadi.

8.3. Bosh muharrir "Journal of Global Scientific Innovations" jurnalining faoliyatiga shaxsan mas'ul hisoblanib, jurnalni nashr etish uchun qonun, Muassis va jamoatchilik oldida to'la javobgar.

8.4. Bosh muharrir tahrir hay'ati tarkibini tuzishda va tasdiqlashda Muassisga taklif kiritadi.

8.5. Tahririyat qoshida yetuk olimlar va soha mutaxassislaridan iborat maslahat organi – Tahrir hay'ati tashkil etiladi. Tahrir hay'ati a'zolari Bosh muharrir taklifi asosida Muassis tomonidan tasdiqlanadi.

8.6. Tahrir hay'ati quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Nashr etiladigan maqolalar sifatini baholash va ilmiy darajasini ta'minlash;

- Jurnalning ilmiy yo'nalishi va siyosatini belgilashda ishtirok etish;
- Taqrizchilarni tavsiya qilish va taqriz jarayonini nazorat qilish;
- Jurnalning xalqaro ilmiy bazalarda ro'yxatdan o'tkazilishiga ko'maklashish.

9. MOLIYALASHTIRISH MANBALARI VA FOYDANI TAQSIMLASH TARTIBI

9.1. Tahririyatni moliyalashtirish manbalari quyidagilardan iborat:

- Muassis tomonidan ajratiladigan mablag'lar;
- Maqolalarni ko'rib chiqish va nashr etish uchun olinadigan to'lovlar (Article Processing Charge – APC);
- Reklama va shartnomaviy materiallardan tushgan mablag'lar;
- Homiylik va grantlardan keladigan mablag'lar;
- Obunadan tushgan mablag'lar.

9.2. Tahririyat faoliyatidan olingan sof foyda quyidagi maqsadlarga yo'naltiriladi:

- Tahririyat xodimlarining ish haqi va moddiy rag'batlantirish;
- Jurnalni tayyorlash va nashr etish xarajatlarini qoplash;
- Tahririyatning moddiy-texnika bazasini rivojlantirish;
- Muassis ko'rsatmasi asosida zahira fondini to'ldirish.

9.3. Tahririyat faoliyatidan paydo bo'lgan zarar qonunda ko'rsatilgan tartibda Muassis tomonidan qoplanadi.

10. OAV CHIQRILISHINI TO'XTATIB TURISH YOKI TUGATISH ASOSLARI VA TARTIBI

10.1. OAVning chiqarilishini to'xtatib turish yoki tugatish ro'yxatdan o'tkazuvchi organning da'vo arizasi asosida sudning qaroriga ko'ra amalga oshiriladi.

10.2. Muassis OAVning chiqarilishini mazkur Nizomda yoki Muassis va Tahririyat o'rtasidagi tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan hollarda to'xtatib turish yoxud tugatishga haqlidir. Muassis bu haqda ro'yxatdan o'tkazuvchi organni uch kun ichida yozma ravishda xabardor etadi.

10.3. OAVning chiqarilishini tugatish uchun sud qarori uchun asos bo'lishi mumkin:

- OAV to'g'risidagi qonun hujjatlari tahririyat tomonidan muntazam ravishda buzib kelinganligi;
- Sudning OAVning chiqarishni to'xtatib turish haqidagi qarori bajarilmaganligi;
- OAVning olti oy davomida chiqarilmaganligi;
- Qonun hujjatlarida belgilangan boshqa holatlar.

10.4. Ommaviy axborot vositasining chiqarilishini tugatish uning ro'yxatdan o'tkazilganligi to'g'risidagi guvohnomaning amal qilishini tugatilishiga sabab bo'ladi.

11. TAHRIRIYAT FAOLIYATINI QAYTA TASHKIL ETISH VA TUGATISH TARTIBI

11.1. Tahririyat faoliyati Muassis tomonidan yoki sudning qaroriga ko'ra to'xtatilishi yoki tugatilishi mumkin.

11.2. Tahririyat faoliyati tugatilayotgan taqdirda Muassis tomonidan tuzilgan tugatish komissiyasi tahririyat rahbarligini zimmasiga oladi va belgilangan muddat ichida tahririyat faoliyatini tugatishga doir barcha ishlarni amalga oshiradi.

11.3. Tahririyat faoliyati tugatilgan taqdirda, tegishli qonunlarga muvofiq, qaytadan xuddi ana shu nomda ommaviy axborot vositasini ta'sis etish masalasini qo'yishi mumkin. Bunday hollarda ommaviy axborot vositasini qayta ro'yxatdan o'tkazish talab etiladi.

11.4. Tahririyatni bo'lish, ajratib chiqarish, qo'shib yuborish mumkin emas.

11.5. Qayta tashkil etilgan ommaviy axborot vositasi davlat ro'yxatidan o'tkazilganidan so'ng faoliyatini boshlaydi.

12. NIZOMNI QABUL QILISH VA O'ZGARTIRISHLAR KIRITISH TARTIBI

12.1. Tahririyat Nizomi O'zbekiston Respublikasining "Ommaviy axborot vositalari to'g'risida"gi qonuniga muvofiq Muassis tomonidan qabul qilinadi va tasdiqlanadi. Qabul qilingan Nizom qoidalari tahririyatning barcha xodimlari uchun egallab turgan lavozimidan qat'iy nazar majburiydir.

12.2. Nizomga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritish faqat Muassis buyrug'i bilan va amaldagi qonun hujjatlari asosida amalga oshiriladi.

12.3. Mazkur Nizom Muassis tomonidan tasdiqlangan kundan e'tiboran kuchga kiradi.